

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI**

**AXMEDOV MAKSAD IBRAGIMOVICH**

**CHIGIT SARALASH QURILMASINING SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH MAQSADIDA UNING KONSTRUKSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences**

**Axmedov Maksad Ibragimovich**

Chigit saralash qurilmasining samaradorligini oshirish maqsadida uning  
konstruksiyasini takomillashtirish ..... 5

**Ахмедов Максад Ибрагимович**

Совершенствование конструкции семясортировочного устройства  
с целью повышения его эффективности. .... 23

**Akhmedov Maksad**

Improving the design of a seed sorting device in order to increase its  
efficiency. .... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN TO‘QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI**

**AXMEDOV MAKSAD IBRAGIMOVICH**

**CHIGIT SARALASH QURILMASINING SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH MAQSADIDA UNING KONSTRUKSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Namangan – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4470 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan to'qimachilik sanoati institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Namangan to'qimachilik sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.ntsi.uz](http://www.ntsi.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muradov Rustam Muradovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Umarov Akmal Akparaliyevich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan to'qimachilik sanoat instituti huzuridagi PHD.03/03.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "29" iyun soat 14:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04, (998)55-255-43-04. e-mail: info @ntsi.uz, Namangan to'qimachilik sanoat instituti 1-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan to'qimachilik sanoat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (17-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998)55-251-43-04, (998)55-255-43-04.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "15" iyun kuni tarqatildi.  
(2024 yil "02" may da 14-raqamli reestr bayonnomasi).



**Q.M.Xoliqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, texnika fanlari doktori, professor

**X.T.Bobojanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmij kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

**J.Q.Yuldashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika  
fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda to‘qimachilik mahsulotining asosiy xomashyosi paxta tolasi hisoblanib, paxta tolasini tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlagan holda uni qayta ishlash jarayoniga innovatsion, energiya resurstejamkor texnologik mashinalarni joriy qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda paxta tolasiga talabning tobora ortib borishi natijasida paxtaning sifati va uni ishlab chiqarish samaradorligini to‘xtovsiz oshirib borishni talab etadi. «Paxta bo‘yicha Xalqaro konsultativ qo‘mita»<sup>1</sup> (ICAC) ma‘lumotlariga qaraganda so‘ngi yillarda jahon miqyosida 23,07 mln tonna paxta tolasi ishlab chiqarilishi hamda uning iste‘moli 24,55 mln tonnani tashkil etmoqda. Bu borada, jumladan, paxta tolasining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy hamda texnologik jihatdan ishonchli va sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi yangi texnologiya va qurilmalarni modernizatsiya qilishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Jahonda paxta xomashyosiga ishlov berish jarayonini texnika va texnologiyalarini uzluksiz va samarali ishlashini ta‘minlaydigan innovatsion, energiya resurstejamkor texnologik mashinalarini ishlab chiqish hamda ularni optimal parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, sifatli xomashyo, tola va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash va jarayonlarning energiya sarfini kamaytirish, uskunalarning ixcham, sodda, kam material va energiya sarflaydigan konstruksiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy, avtomatlashgan, mahsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarni yaratish, shuningdek yaratilgan ilg‘or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish mazkur sohani rivojlantirishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda paxta tozalash sanoatini modernizatsiya qilish asosida ichki va tashqi bozorda paxta mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash orqali ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 sonli farmoni bilan imzolangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da, jumladan «...milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash hamda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish»<sup>2</sup> bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish maqsadida, paxta tozalash korxonalarini rekonstruksiya qilish, texnologiyasini yangilash, uni zamonaviy, avtomatlashgan mashina va uskunalar bilan jihozlash vazifalari qo‘yilmoqda. Shu bilan birga, asosiy texnologiyadan tashqari, yordamchi

---

<sup>1</sup>International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/>, email [secretariat@icac.org](mailto:secretariat@icac.org). September 1, 2018

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

uskunalar, xususan, paxta pnevmotransporti uskunasi elementlarining tashilayotgan xomashyo dastlabki sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sirini bartaraf etish orqali ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini yaxshilash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 253-sonli "Paxta to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, 2017-yil 28-noyabrdagi PQ-3408-son "Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Paxta tozalash korxonalarida jinlash (chigitdan to'lani ajatish) jarayonidan chiqqan chigitlarni saralash va tozalashda ishlatiladigan mexanizatsiya vositalari, jumladan shnekli konveyerlar ish unumini oshirish, texnologik ko'rsatkichlarini muqobillash, konstruksiyalarining yangilarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish bo'yicha dunyoda S.Jakson, L.Pezo, A.A.Ordin, S.Xiaoxia, L.Wen, L.Orefise va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan.

Mamlakatimizda paxta xomashyosini dastlabki ishlash texnologik jarayonidagi chigitlarning tabiiy va fizik-mexanik xususiyatlarini, ularni ishlab chiqarish sharoitida tolasidan ajratilgandan so'ng saralash va tozalash nazariy-fundamental, amaliy masalalari hamda metodologik asoslarini yaratishda G.I.Miroshnichenko, X.T.Axmedxodjaev, X.Isaxanov, M.Sultonov, A.M.Grigorev, R.Xojimatov, M.Tojiboev, S.Azimov, A.Obidov, A.Tursunov, X.Abdugaffarov, S.Rejabboev va boshqa olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida Namangan to'qimachilik sanoati institutida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar rejasi bilan o'zaro uzviy bog'langan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining amaliy tadqiqotlar davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jin mashinalaridan tolasidan ajralib chiqayotgan chigitlar oqimidan linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratib oluvchi qurilmaning samarali konstruksiyasini ishlab chiqish orqali chigitlarning sifatini yaxshilash va ortiqcha elektr energiya sarfini kamaytirish.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

jin mashinalaridan chiqayotgan chigitlarning fraksion tarkibini paxtaning turli xil seleksion navlarida o'rganish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

tavsiya etilayotgan chigit saralash qurilmasining texnologik va konstruktiv parametrlarini nazariy jihatdan asoslash;

shnek ta'sirida tarkibida lint (momiq) bo'lgan va momiq bo'lmagan chigitlarni bir-biriga nisbatan harakatini vaqtga bog'lagan holda nazariy va amaliy yo'llar bilan o'rganish;

chigitlarni saralash va tozalash jarayonida shnek hamda to'rli baraban ta'siridagi chigit harakatining matematik modelini ishlab chiqish;

nazariy va amaliy izlanishlar asosida takomillashtirilgan chigit saralagich qurilmasi ishchi elementlarining tezliklarini tadqiq qilish;

shnek va to'rli barabanning aylanishlar sonini qurilma samaradorligiga ta'sirini aniqlash;

qurilmaning samarali ishlashiga ta'sir etuvchi ishchi organlarini optimal parametrlarini aniqlash;

aniqlangan optimal parametrlar asosida yangi chigit saralash qurilmasini ishlab chiqish va linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni yuqori samaradorlikda chigitlar oqimida ajratib olish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida paxta tozalash korxonalarida jinlash jarayonidan chiqayotgan chigitlar tarkibidan linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratish va saralash qurilmasi, to'rli baraban hamda shnekli konveyerlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** jindan chiqqan chigitlarni tarkibi bo'yicha ajratib olishni tadqiq qilish usuli va vositalari, chigit saralash jarayonining konstruktiv va texnologik parametrlarini o'z ichiga oladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, matematik statistika, ehtimollar nazariyasi, oliy matematika va tajribalarni rejalash va aptimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

paxtaning turli xil seleksion naviga mansub bo'lgan chigitlarning o'lchami asosida to'rli barabanning teshiklarini maqbul qiymatlari topilgan hamda shnek va to'rli barabanni bir-biriga nisbatan qarama-qarshi aylanishi natijasida chigitlarni to'rli yuzadan tushishi ehtimollar nazariyasi asosida aniqlangan;

shnek ta'sirida tarkibida lint (momiq) bo'lgan va momiq bo'lmagan chigitlarni bir-biriga nisbatan harakatini vaqtga bog'lagan holda matematik modellari ishlab chiqilgan;

linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratib olishdagi eng yuqori samaradorlikka erishishda to'rli barabanning teshiklarini shakli va joylashishining ratsional parametrlari aniqlangan;

saralanayotgan chigitlarning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish maqsadida tashuvchi shnek yuzasi elastik xususiyatga ega bo'lgan rezina bilan qoplangan konstruktsiyasi ishlab chiqilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Nazariy, amaliy va tajribaviy ilmiy izlanishlar natijasida jinlash jarayonidan chiqayotgan chigitlar oqimidan linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni samarali ajratib oluvchi chigit saralash qurilmasi ishlab chiqilgan:

jinlash (chigitdan tolani ajratish) jarayonidan chiqayotgan chigitlar tarkibida puch va mayda chigitlar borligi bilan bir qatorda tolasi hamda linti (momiq) dan to'liq ajragan chigitlarni ham ko'p miqdorda bo'lishi aniqlangan;

shnekning ustki yuzsi bo'ylab qoplangan to'rli barabanni shnek aylanishiga nisbatan qarshi tomonga aylanishi qurilma samaradorligini oshirishga erishilishi aniqlangan;

shnekning aylanishlar sonini standart bo'yicha qoldirib, to'rli baraban aylanishlar sonini uning yarmiga teng miqdorda aylantirish orqali to'rli barabani teshiklarida chigitlarni turib qolish ehtimolini kamaytirgan;

shnekning yuza qismiga elastik rezina qoplash natijasida chigitlarni shikastlanish miqdorini kamaytirish bilan bir qatorda to'rli yuza teshiklarini chigit bilan berkilib qolishining oldi olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Nazariy va tajribaviy izlanishlar natijalarining mutanosibli, tavsiya etilgan chigit saralash qurilmasining ishlab chiqarish sinovlari va mavjud chigit saralash qurilmalari ko'rsatgichlariga solishtirish natijalari bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyani ilmiy-tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, jinlash (chigitdan tolani ajratish) jarayonidan chiqayotgan chigitlar oqimidan linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratib olib, ularni linter mashinalaridan o'tkazmasdan to'g'ridan-to'g'ri chigit omboriga yuborishning nazariy va amaliy usullari ishlab chiqilgan. Buning uchun chigit saralash qurilmasining konstruktorlik o'lchamlarini aniqlashni hamda saralanayotgan chigitlarni fraksion tarkibi bo'yicha teshiklardan tushishini ehtimollar nazariyasi va ularning harakat qonuniyatini ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotni amaliy ahamiyati yangi konstruksiyadagi chigit saralash qurilmasi jin mashinalaridan chiqib, linter mashinalariga tarkibidagi lint (momiq)larni qirib olish uchun yuborilayotgan chigitlar oqimidan linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratib olish va samarali saralash maqsadida saralashning yangi usuli ishlab chiqilganligi, saralash jarayonida chigitning ortiqcha mexanik shikastlanishini oldini olish uchun shnek yuzasi elastik rezina bilan qoplanganli va shnek bilan to'rli barabanni qarama-qarshi tomonga aylanishi hisobiga samaradorlik oshirishga erishilganligi, shuningdek, chigitlarni sifati saqlab qolinishi hisobiga ularning sinfini bir pog'ona yuqoriga ko'tarishi va yuqori iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilish uchun tavsiya etilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Paxta tozalash korxonalarining asosiy jarayoni hisoblangan jinlash (chigitdan tolani ajratish) jarayonidan so'ng chiqqan chigitlarni saralash jarayonini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan natijalar asosida:

tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan yangi chigit saralash qurilmasi "Namangan To'qimachi cluster" MCHJ ga qarashli "To'raqo'rg'on paxta tozalash" korxonasi ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilgan («O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari» uyushmasining 03/22-183-son ma'lumotnomasi). Natijada jin mashinalaridan chiqib, linter mashinalariga tarkibidagi lint

(momiq)larni qirib olish uchun yuborilayotgan chigitlar oqimidan linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratib olish va samarali saralash orqali umumiy olinayotgan chigitlarning 24.6 % miqdori linter mashinalari ta'sirida 2.5 % gacha shikastlanishining oldi olingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqolalar, jumladan 2 ta respublika va 3 ta chet el ilmiy jurnallarida ilmiy nashr etilgan hamda EHM dasturlari uchun 4 ta DGU guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy-tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi va vazifasi**" deb nomlangan birinchi bobida ilmiy tadqiqot ishining maqsad va vazifasidan kelib chiqan holda tadqiqot mavzusi bo'yicha analitik tahlil o'tkazilgan va tadqiqot yo'nalishlari asoslangan.

Jinlash jarayonidan chiqqan chigitlarning tarkibiy qismlarini o'rganish va ularni saralash jarayonini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilingan. Jin mashinalaridan chiqayotgan chigitlarni saralash jarayonining samaradorligini oshirish uchun saralash qurilmasining optimal parametrlari hamda chigitlarni fraksion tarkibi bo'yicha izlanishlar yetarli darajada olib borilmaganligini ko'rsatadi. Jinlash jarayonidan chiqayotgan chigitlar saralanmasdan linterlash jarayoniga uzatib berilishi hisobiga linter arralarining ta'sirida 2,5 % gacha chigitlarni shikstlash holatlari yuzaga kelmoqda. Chigitlarni saralash jarayoni saralash qurilmalarining saralash qismlariga uzviy bog'liq bo'lib, izlanishlar davomida ixcham, kam material talab qiladigan, saralash qurilmasining konstruksiyasi amaldagi chigit saralash qurilmalariga nisbatan taqqoslangan.

Dissertatsiyaning "**Saralagichning saralash yuzasida chigit harakatining nazariy tadqiqoti**" deb nomlangan ikkinchi bobida Jinlash (chigitdan tolani ajratish) jarayonidan chiqqan chigitlar oqimida tarkibida linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni turli xil o'lchamdagi to'rtli yuzadan chigitlarni o'lchamiga


qarab saralanishiga asoslangan. Dastlab, tashqi yuzasi turli xil o'lchamdagi to'rli yuza bilan qoplangan aylanuvchi shnek ta'sirida tarkibida tolasi bor chigitlarni to'rli yuza bo'ylab harakatlanishi natijasida bir-biriga ilashgan chigitlar oqimini saralash jarayoni nazariy o'rganildi. Bunda to'rli yuzani teshikchalarini turli xil o'lchamdagi konstruksiyasi ishlab chiqilib, saralash jarayoniga ta'siri nazariy ko'rib chiqildi.

Shnek va to'rli barabanning umumiy uzunligi 3 metrga teng bo'lib 3 xil uchastkaga ajratilgan:

- $L_1=0,8$  metr qismi  $z=5$  mm ga teng bo'lgan teshiklardan iborat bo'lib, bu qismda puch va mayda chigitlar hamda chigitlar tarkibidagi turli xil iflosliklardan tozalash uchun moslashtirilgan.
- $L_2=1,0$  metr qismi  $z=6$  mm ga teng teshikchalardan iborat. To'rli barabanning ushbu qismida tola va momiqdan to'liq ajragan chigitlar ya'ni literlash jarayoniga yubormasdan to'g'ridan-to'g'ri chigit omboriga yuborsa ham bo'ladigan chigitlar uchun mo'ljallangan.
- To'rli barabanning  $L_3=1,20$  metrga teng bo'lgan qismi  $z=7$  mm ga teng teshiklardan tashkil topgan. To'rli barabanning bu qismida esa linterlashga molik bo'lgan chigitlar bunkerga yig'iladi.

To'rli barabanni uzunligi bo'yicha mana shunday 3 xil uchastkalariga bo'linishi va har bir uchastkadagi to'rli baraban teshikchalarining o'lchamlarini paxtaning turli xil seleksion navlari (Andijon-35, Andijon-36, Buxoro-102, S-6524, Namangan-77) va boshqa bir necha sanoat nav va sinflariga mansub paxta chigitlarining o'lchamlari asosida ularning o'rtacha qiymatlari olingan.

Tarkibida tolasi bor chigitlarni yangi saralash qurilmasining turli xil o'lchamdagi teshikchalardan iborat to'rli yuzasi bo'ylab xarakatini amalga oshirishda shnek yuzasiga chigitlar oqimini qo'zg'atuvchi tituv orqali ta'sir qiluvchi kuchlar ko'rib chiqildi (1-rasm).



**1- rasm. Shnek yuzasida chigitlarga ta'siri natijasida to'rli yuza bo'ylab harakati sxemasi. (1-shnek, 2-to'rli yuza, 3-to'rli yuzadagi teshikcha, 4-teshikcha geometrik shakli)**

G-tolali chigit og'irlik kuchi; S-markazdan qochma kuch; R-aerodinamik kuch;  $F_1$ -Shnek yuzasi bo'yicha tarkibida tolasi bor chigitning ishqalanish kuchi;  $F_2$  – tarkibida tolasi mavjud bo'lgan chigitni to'rli yuza bo'ylab ishqalanish kuchi; N- shnek reaksiyasi;  $f$  -ishqalanish koeffitsienti; t-vaqt; m-massa.

1-rasmda ko‘rinadiki,  $G$ ,  $C$  va  $F_1$  kuchlar tarkibida yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitni shnek ajratib olishga va uni dumalatishga harakat qilgan holda,  $R$  va  $F_2$  kuchlari esa, chigitni shnek ta‘sirida harakat qiladilar.

$t=0$  momentda chigit  $M_o(x_o, y_o)$  nuqtada joylashgan bo‘lsin.  $XOY$  o‘qlarni rasmda ko‘rsatilgan  $OX$  o‘qi gorizontal  $OY$  o‘qi unga perpendikulyar yo‘naltirilgan, u xolda chigitning boshlang‘ich holati:

$$\begin{cases} x_0 = r \cdot \cos \phi_0 \\ y_0 = r \cdot \sin \phi_0 \end{cases}$$

Bu yerda  $r$  va  $\phi$ -kutb koordinata tizimi bo‘lib,  $\phi$  – burchak tarkibida tolasi bor chigitning  $OX$  o‘qi bilan tashkil qilgan burchagi. Tolali chigitni shnek sirti bo‘ylab harakat qiladi deb faraz qilsak  $F_1, F_2, R, N, G$  kuchlarning ma‘lum qiymatlarida, tolali chigit va chigitlar shnek ta‘sirida ajralib ketishi va turli xil o‘lchamli to‘rli setkalardan saralanib tushishidagi ta‘siridagi harakatini ifodalaymiz.

To‘rli sirdagi ta‘sirida, bunday shartlarni aniqlash lozim bo‘ladi. Ixtiyoriy  $t > 0$  vaqtda chigitlar oqimini koordinataning burchak  $\phi$  va radius  $r$  orqali ifodalaymiz:

$$x = r \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t); \quad y = r \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t)$$

$$\dot{x} = \dot{r} \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t) - r \cdot \omega \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t);$$

$$\dot{y} = \dot{r} \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t) + r \cdot \omega \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t);$$

$r$  – radiusni umumlashgan koordinata deb qaraymiz va tolali chigitning kinetik energiyasini quyidagicha aniqlaymiz.

$$\begin{aligned} T &= \frac{m}{2} \cdot (\dot{x}^2 + \dot{y}^2) = \\ &= \frac{m}{2} \cdot [(\dot{r} \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t) - r \cdot \omega \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t))^2 + (\dot{r} \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t) \\ &\quad + r \cdot \omega \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t))^2] \\ &= \frac{m}{2} \cdot (\dot{r}^2 + r^2 \cdot \omega^2) \end{aligned} \quad (1)$$

$r$ -koordinata ushbu Lagranjning II-tur tenglamasini qanoatlantiradi.

$$\frac{d}{dt} \left( \frac{\partial T}{\partial \dot{r}} \right) - \frac{\partial T}{\partial r} = Q \quad (2)$$

yoki (2) tenglama quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:


$$m \cdot \ddot{r} - m \cdot \omega^2 \cdot r = Q \quad (3)$$

Bu yerda  $Q$ - umumlashgan kuch bo‘lib, uning qiymati  $r < l$  bo‘lganda shnek bo‘ylab ta‘sir etayotgan kuchlar yig‘indisiga teng.  $r_0$  – baraban radiusi;  $t_0$  – vakt,  $r(t_0) = l$  tenglikdan aniqlanadi.)  $0 < t < t_0$  shartga asoslangan xolda  $Q$  kuchni aniqlaymiz:

$$Q = m \cdot g \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t) \quad (4)$$

Shnek yuzida harakatlangan chigitlar, markazdan qochma kuch  $m \cdot \omega^2 \cdot r$  dan tashqari, quyidagi og‘irlik kuchi va uning ta‘sirida hosil bo‘lgan ishqalanish kuchini aniqlaymiz (2-rasm):

$$F_g = m \cdot g \cdot [\sin(\phi_0 + \omega \cdot t) - f \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t)] \quad (5)$$



2 - rasm. Shnek tomonidan tolali chigitga ta'siri natijasida turli xil o'lchamdagi chigitlarni teshikchalardan uzatish sxemasi

Bu sxemadan ko'rish mumkinki qarshilik kuchi nisbiy tezlik  $\dot{r}$  yo'nalishiga perpendikulyar bo'lib, uning ta'sirida ishqalanish kuchi quyidagicha bo'ladi:

$0 < \phi_0 + \omega \cdot t < \frac{\pi}{2}$  bo'lganda bu shartda normal kuch inobatga olinmaydi.

$$F_k = 2 \cdot f \cdot \dot{r} \cdot \omega \quad (6)$$

R-aerodinamik kuch shnekdagi normal yo'nalishda ta'sir etib, u ham og'irlik kuchini hosil qiladi:

$$F_r = m \cdot g \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t) \quad (7)$$

Bu kuchlarni yig'indisini (3) tenglamaga qo'yib, koordinata ( $r$ ) ning shnek sirti bo'ylab harakat tenglamasini olamiz:

$$m \cdot \ddot{r} = m \cdot \omega^2 \cdot r - 2 \cdot f \cdot \omega \cdot \dot{r} + m \cdot g \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t) \quad (8)$$

Boshlangich shartlar:  $t = 0$ ;  $r = r_0$ ;  $\dot{r} = 0$

Agarda  $\frac{\pi}{2} < \phi_0 + \omega \cdot t < \pi$  bo'lsa bu shartda normal kuch inobatga olinadi.

$$m \cdot \ddot{r} = m \cdot \omega^2 \cdot r - 2 \cdot f \cdot \omega \cdot \dot{r} + m \cdot g \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t) - f \cdot m \cdot g \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t) \quad (9)$$

$$\ddot{r} + 2 \cdot f \cdot k \cdot \dot{r} - \omega^2 \cdot r = g \cdot (\sin(\phi_0 + \omega \cdot t) - f \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t)) \quad (10)$$

Bu yerda  $k = \frac{\omega}{m}$ ,

(10) tenglama  $r = r_n < S$ ,  $\dot{r} = 0$  shartida integrallanadi,  $r(t_0) = l$  va bo'lganda tarkibida yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlar to'rtli yuza bo'ylab harakatlanadi, shuning uchun  $t > t_0$  da uning tezligi shnekning chiziqli tezligi  $r\omega$  ga teng bo'ladi, agar unda ajralgan holda harakatlansa, uning harakat tenglamasi quyidagicha bo'ladi.

$$m \cdot \ddot{S} = -f \cdot m \cdot \frac{\dot{S}^2}{r_0} + \left[ m \cdot g \cdot \left( \sin\left(\frac{S}{r} + \omega \cdot t\right) - f \cdot m \cdot g \cdot \cos\left(\frac{S}{r} + \omega \cdot t\right) \right) \right] \quad (11)$$

Bu yerda:  $S = r_0\varphi$  tolador chigitning  $t > t_0$  vaqtdagi qiymati;  $\varphi \geq \varphi_1, t=t_0$  dagi burchak  $\varphi$  qiymati tolador chigitni  $t < t_0$  vaqt oralig'ida shnekdan ajratish uchun quyidagi shart bajarilishi lozim:

$t_1$ - ning qiymati ushbu  $t_0 < t_1 < \frac{\alpha}{\omega}$  shartdan aniqlanadi. Agar  $t_0 > t_1$  bo'lsa, u holda, chigitlar shnek sirtida ajralgan bo'ladi, agar  $t_1 > \frac{2\pi}{\omega}$  bo'lsa, jarayonning davriyligini e'tiborga olgan holda, chigitlar shnekdan ajraladi.

Ushbu (14) tenglama yordamida tarkibida yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitni turli xil o'lchamdagi geometrik shaklga ega to'rtli yuza bo'ylab harakatida shnek tomonidan ushlab turishni ta'minlaydigan burchakni aniqlash mumkin bo'ladi.

Vintli konveyerni radiusi tolali chigit oqimini qancha masofaga ko'tarilishini quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkin:

Bu tenglamani (10) ikkinchi tartibli differensial tenglamani yechish orqali olinadi.

$$r = A \cdot e^{k_1 t} + B \cdot e^{k_2 t} + A_0 \cdot (\sin(\phi_0 + \omega \cdot t) + B_0 \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t)) \quad (12)$$

$$A_0 = \frac{g}{2 \cdot \omega^2 \cdot \sqrt{1+f^2}}; \quad B_0 = \frac{g \cdot f}{2 \cdot \omega^2 \cdot \sqrt{1+f^2}} \quad (13)$$

$$r = A \cdot e^{k_1 t} + B \cdot e^{k_2 t} + \frac{g}{2 \cdot \omega^2 \cdot \sqrt{1+f^2}} \cdot (\sin(\phi_0 + \omega \cdot t) +$$

$$+ \frac{g \cdot f}{2 \cdot \omega^2 \cdot \sqrt{1+f^2}} \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t)) \quad (14)$$

$$\begin{cases} 2 \cdot C_1 \cdot \omega^2 + 2 \cdot f \cdot \omega^2 \cdot C_2 = g \\ -2 \cdot f \cdot C_1 \cdot \omega^2 + 2 \cdot \omega^2 \cdot C_2 = f \cdot g \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} C_1 = \frac{g \cdot (1-f^2)}{2 \cdot \omega^2 \cdot (1+f^2)} \\ C_2 = \frac{g \cdot f}{2 \cdot \omega^2 \cdot (1+f^2)} \end{cases} \quad (15)$$

(23) aniqlangan qiymatlarni (22) ga qo'yamiz.

$$r_1 = B_1 \cdot e^{-k_1 \cdot (t-t_0)} + B_2 \cdot e^{-k_2 \cdot (t-t_0)} + \frac{g \cdot (1-f^2)}{2 \cdot \omega^2 \cdot (1+f^2)} \cdot (\sin(\phi_0 + \omega \cdot t) + \frac{g \cdot f}{2 \cdot \omega^2 \cdot (1+f^2)} \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t)) \quad (16)$$

$B_1$  va  $B_2$  doimiylari  $r_1(t_0) = r(t_0), \dot{r}_1(t_0) = \dot{r}(t_0)$ , shartlardan aniqlanadi.


$$B_1 + B_2 = -\frac{g}{2 \cdot \omega^2 \cdot (1+f^2)} \cdot [2 \cdot f \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t_0) + (1-f^2) \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t_0)] + r(t_0)$$

$$k_1 \cdot B_1 + k_2 \cdot B_2 = \frac{g}{2 \cdot \omega^2 \cdot (1+f^2)} \cdot [-2 \cdot f \cdot \sin(\phi_0 + \omega \cdot t_1) + (1-f^2) \cdot \cos(\phi_0 + \omega \cdot t_1)] + \dot{r}(t_0) \quad (17)$$


Bu sistemadan  $B_1$  va  $B_2$  doimiylari aniqlanadi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida vaqtni radiusga bog'liqligi, ya'ni shnek yuzasi bo'ylab tolador chigitni ilib olish va tushib ketish masofalarini quyidagi grafikda ko'rishimiz mumkin (3-4-rasm), (11) tenglamaga asosan shnekdan ajratilgan tolali chigitning turli xil geometrik shakldagi to'rtli setka teshikchalaridan

iflosliklarni tushishidagi harakatini traektoriyasini Maple dasturidan foydalanib grafiklarda tahlilari keltirilgan.



3-rasm. Vintli konveyer sirtidagi chigitlarning tushib ketishni to‘rli yuzadagi turli xil o‘lchamdagi 1)  $z=7\text{ mm}$ , 2)  $z=6\text{ mm}$ , 3)  $z=5\text{ mm}$ . teshikchalar vaqtiga bog‘liqlik grafigi



4-rasm. Chigitning to‘rli setka sirtidagi turli xil o‘lchamdagi

1)  $z=7\text{ mm}$ , 2)  $z=6\text{ mm}$ , 3)  $z=5\text{ mm}$ . teshiklar qiymatlarda harakatini vaqtga bog‘liq grafigi.

Yuqorida keltirilgan grafikdan ko‘rinadiki, vintli ishchi organga ega chigit saralagichda o‘qning qiyalik burchagi  $\gamma$ , radius  $r$ , vintli chiziqni ko‘tarilish burchagi  $\alpha$ , burchakli tezlik  $\omega$ , chigit oqimini vintli ishchi organ aylanishi tarafiga buralish burchagi  $\varphi$ , tolador chigitni ishqalanish koeffitsientlari  $f_1$  va  $f_2$  ga bog‘liqligini ifodalovchi matematik modellar olindi va bajarilgan hisoblashlar natijasida ko‘rsatkichlari  $r=230\text{ mm}$ ;  $\alpha=30^\circ$ ;  $f_1=0,3$ ;  $f_2=0,4$ ;  $n_0=260\text{ min}^{-1}$ ;  $\varphi=62^\circ$  bo‘lganda shnekni 0,8 metr qismi 5 mm ga teng bo‘lgan teshiklardan iborat bo‘lib, bu qismda puch va mayda chigitlar hamda chigitlar tarkibidagi turli xil iflosliklardan tozalangan, shnekni 1,0 metr qismi 6 mm ga teng teshikchalarda esa to‘rli barabanning ushbu qismida tola va momiqdan to‘liq ajragan chigitlar ya‘ni literlash jarayoniga yubormasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chigit omboriga yuborsa ham bo‘ladigan chigitlar uchun mo‘ljallangan chigitlar saralangan, shnekni to‘rli barabanning 1,20 metrga teng bo‘lgan qismi 7 mm ga teng teshiklardan iborat qismida to‘rli barabanning bu qismida esa linterlashga molik bo‘lgan chigitlar saralanganini grafiklardagi traektoriyalarida ko‘rishimiz mumkin.


Dissertatsiyaning “**Jindan chiqqan chigitlar tarkibidan linterlashga molik bo‘lmagan chigitlarni ajratib olish jarayonining eksperimental tadqiqotlari**” deb nomlangan uchunchi bobida yangi taklif etilayotgan chigit saralash qurilmasida o‘tkazilgan tadqiqotlar keltirilgan.

Jinlash (chigitdan tolani ajratish) jarayonida 4DP-130 va 5DP-130 jin mashinalari yordamida amalga oshirilib, ajralgan tolalar tola tozalash mashinalari orqali tozalanib toylash jarayoniga uzatib beriladi. Ajralib chiqayotgan chigitlar esa shneklar yordamida keyingi texnologik jarayon ya’ni linterlashga uzatib beriladi. Jindan chiqayotgan tolasidan ajragan chigitlarning fraksiyon tarkibini o‘rganish maqsadida jin mashinalaridan chiqayotgan chigitlardan 2,4 kg namuna olindi (5-rasm).



**5-rasm. Jinlash jarayonidan chiqqan chigitlar oqimidan olingan namuna**

Tajriba o‘tkazish vaqtida ilmiy tadqiqot ishi olib borilayotgan “Namangan to‘qimachi cluster” MChJ ga qarashli “To‘ra‘o‘rg‘on paxta tozalash korxonasi” da Andijon – 35 seleksion navdagi paxta xomashyosi qayta ishlanayotgan bo‘lib, olingan namunadagi chigitlar o‘lchami va toladorlik darajasiga qarab to‘rt xil fraksiyalarga ajratildi (6-rasm).



**6-rasm. Fraksiyalarga ajratilgan chigitlar tarkibi**

1-puch va mayda chigitlar; 2-omborga boradigan chigitlar; 3-linterlashga molik chigitlar; 4-yigiruvga yaroqli tolası bor chigitlar.

Jinlash jarayonidan chiqqan chigitlar oqimidan olingan namunalar (puch va mayda chigitlar, omborga boradigan chigitlar, linterlashga molik chigitlar hamda

yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlar) fraksiyalarga ajratilganda 10 kg massadagi namunadan:

- 1) Puch va mayda chigitlar – 1,13 kg; (11,3 %)
- 2) Omborga boradigan chigitlar – 2,91 kg; (29,1 %)
- 3) Linterlashga molik chigitlar – 5,25 kg; (52,5 %)
- 4) Yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlar – 0,71 kg (7,1 %)

Fraksiyalarga ajratilgan chigitlar miqdorini quyidagi 1-jadval ko‘rinishida kg va % lar ifodalaymiz.

**1-jadval**

**Fraksiyalarga ajratilgan chigitlar miqdori**

№	Chigit fraksiyalari	Miqdori, kg	Miqdori, %
1	Puch va mayda chigitlar	1,13	11,3
2	Omborga boradigan chigitlar	2,91	29,1
3	Linterlashga molik chigitlar	5,25	52,5
4	Yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlar	0,71	7,1

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Andijon–35 seleksion navdagi paxta chigitidan olingan namunani fraksiyalarga ajratilganda puch va mayda chigitlarni ko‘p miqdorda (biz tahlil qilayotgan namunada 11,3 %) bo‘lishi olinayotgan chigit sifatini pasaytirishga olib keladi. Ayniqsa, olinadigan chigit urug‘lik chigit uchun bo‘lsa, uning tarkibidan puch chigitlar ajratib olinmasa, korxonada tomonidan urug‘lik chigit tayyorlash sexlariga sotish jarayonida mahsulotning sinfini tushib ketish holatlari kuzatilishi mumkin.


Jadval asosida keltirilgan ushbu qiymatlardan foydalanib quyidagi gistogramma olishimiz mumkin (7-rasm).



**7-rasm. Fraksiyalarga ajratilgan chigitlarni gistogramma ko‘rinishida tasvirlanishi**

Jinlash jarayonidan chiqqan chigitlar oqimidan olingan namunalarni tahlil qilish jarayonida chigitlar tarkibida yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlar ko‘p miqdorda uchrashi (biz tahlil qilayotgan namunada 7,1 %) bilan birgalikda xattoki, linter mashinalaridan o‘tkazmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri chigit omboriga yuborsa bo‘ladigan chigitlar (biz tahlil qilayotgan namunada 29,1 %) ham ko‘p miqdorni

tashkil qilmoqda. Bu esa o'z o'rnida linter mashinalaridan yana qayta qayta o'tkazish natijasida chigitlarni ortiqcha mexanik kuchlar ta'sirida shikastlash bilan bir qatorda ortiqcha elektr energiya sarfini oshirishga ham olib keladi. Shuning uchun jinlash jarayonidan chiqqan chigitlarni o'lchami, pishib yetilganlik darajasi hamda toladorlik miqdoriga qarab saralaydigan chigit saralash qurilmasini va uning optimal parametrlari aniqlangan ishchi organlarini ishlab chiqish ushbu ilmiy-tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi (8-rasm).



**8-rasm. Paxtaning turli xil navlaridan olingan chigitlarning toladorlik darajasini grafiklarda ko'rinishi.**

Qurilma ishchi organlarining ratsional parametrlarini aniqlash bo'yich ko'p omilli takrorlanmas usul yordamida tajribalar o'tkazildi. Misol tariqasida turli xil hajmdagi chigitlarni takomillashgan shnek va to'rli baraban ta'sirida linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratish miqdori, va yigiruvga yaroqli tolasini bor chigitlarni ajratib olishni yangi usulda olinadigagi texnologik parametrlarining shakldor chigitlarning hajmdor bo'lishiga ta'sirini o'rganish uchun kerak bo'lgan matematik modellarni qurishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun turli Shnek tezligi, to'rli baraban tezligi turli qiymatlarida, hamda turli xil to'rli barabanning diametrida chigitlarni saralash jarayonini ko'ramiz. Tajriba o'tkazish shartlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**


**1-tajribaning rejalashtirish sharti**

№	Omilning nomi, belgisi	Kodlash-tirilgan belgisi	Faktoring haqiqiy qiymatlari			O'zgarish oralig'i
			-1	0	+1	
1	Shnek tezligi, <i>ayl/min</i>	$x_1$	60	80	100	20
2	To'rli baraban tezligi, <i>ayl/min</i>	$x_2$	30	40	50	10
3	To'rli barabanning diametri, <i>mm</i>	$x_3$	330	332	334	2

Chiquvchi parametr sifatida linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratish miqdorini hamda yigiruvga yaroqli tolasini bor chigitlarni ajratib olish miqdori


olamiz. Chigitlarni ajratish jarayonida ta'sir qiluvchi kiruvchi parametrlar shnek tezligi, to'qli baraban tezligi hamda to'qli baraban diametrlarini chigitlarning hajmdorligiga qarab saralashdagi davomiyligining (kiruvchi omillarning) ta'sirini tajriba asosida o'rganamiz. Buning uchun rejalashtirish matritsasi asosida har bir sharoitda 3 marotaba takroran tajribalar o'tkazamiz. Bu holda tajribalar soni  $N = 2^3 = 8$ , takrorlanishlar soni  $m = 3$  ni hisobga olsak, umumiy tajribalar soni  $N \cdot m = 24$  bo'ladi. Chiquvchi omil sifatida linterlashga molik bo'lmagan chigitlar miqdori olindi. (9-10-rasm)

$$Y_R(x_2, x_3) = 20.5 + 1.7625 \cdot x_2 - 0.6675 \cdot x_3 + 1.413 \cdot x_1 \cdot x_2 - 0.9125 \cdot x_2 \cdot x_3 + 0.6875 \cdot x_1 \cdot x_2 \cdot x_3$$





**9-rasm. To'qli barabanning burchak tezligining  $x_1 = 0.8 \div 1$  gacha oshishi to'qli baraban diametrini  $x_3 = -1 \div -0.6$  kamayishi hisobiga chigitlarning hajmdorligiga qarab saralashdagi samaradorligini oshishini izochiziqalarda ifodalanishi. Bunda shnekning burchak tezligining eng katta qiymatida  $x_1 = 1$  erishadi.**

$$Y_R(x_1, x_2) = 20.5 + 1.7625 \cdot x_2 - 0.6675 \cdot x_3 + 1.413 \cdot x_1 \cdot x_2 - 0.9125 \cdot x_2 \cdot x_3 + 0.6875 \cdot x_1 \cdot x_2 \cdot x_3$$



**10-rasm. Shnekning burchak tezligining  $x_1 = 0.2 \div 1$  gacha oshishi va to'qli barabanning burchak tezligining  $x_2 = 0.8 \div 1$  gacha oshishi hisobiga chigitlarning hajmdorligiga qarab saralashdagi samaradorligini oshishini izochiziqalarda ifodalanishi. Bunda to'qli barabanning diametrining qiymatida  $x_3 = -1$  erishadi.**

Dissertatsiyaning “Chigit saralash qurilmasini ishlab chiqarishda sinash va uning iqtisodiy samaradorligi hisobi” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Aniqlangan optimal parametrlar hamda jin mashinasidan chiqayotgan chigitlar oqimi tarkibidagi linterlashga molik bo‘lmagan chigitlar miqdoridan kelib chiqib yangi konstruksiyadagi chigit saralash qurilmasi ishlab chiqildi (11-rasm). Tayyorlangan chigit saralash qurilmasining sanoat namunasining chigitlarni fraksion saralash samaradorligini aniqlash maqsadida paxta tozalash korxonasi ishlab chiqarish sharoitida tajribalar o‘tkazildi.



**11-rasm. Chigit saralash qurilmasining yangi konstruksiyasi**

A-qurilmaning konstruksion sxemasining umumiy ko‘rinishi; B – qurilma konstruksion sxemasining old tomondan ko‘rinishi; C – tayyorlangan qurilmaning umumiy ko‘rinishi  
 1-kirish quvuri; 2-to‘rli baraban; 3-shnek; 4-elektrovdigatel; 5-puch va mayda chigitlar uchun bunker; 6-linterlashga molik bo‘lmagan chigitlar uchun bunker; 7-linterlanadigan chigitlar uchun bunker; 8-jin mashinasiga qaytadigan chigitlar uchun nov

Paxta chigitlari to‘rli barabanning 3 xil o‘lchamdagi teshiklari bo‘yicha bunkerlar tushib qolishi va mana shu uch xil teshiklardan o‘tib alohida maxsus nov bo‘ylab to‘planadigan tolasi bor chigitlarni ajralish jarayoni paxtaning Andijon-36 (I nav 2 sinf) da o‘tkazilganda chigitlarning 26 % ga teng bo‘lgan qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri omborga yuborsa ham bo‘ladigan chigitlarni tashkil qildi. Paxtaning Buxoro-102 (II nav 1 sinf) ga mansub paxta chigitida o‘tkazilgan tajribalarda namuna uchun olingan chigitlarning umumiy miqdorini 23 % ini linterlashga molik bo‘lmagan chigitlar va 7,3 % ini yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlar tashkil etdi (12-rasm).



A



B

**12-rasm. Chigit saralash qurilmasining yangi konstruksiyasida linterlashga molik bo'lmagan va linterlanadigan chigitlarni ajralib chiqishi**

A-linterlashga molik bo'lmagan chigitlar; B-linterlanadigan chigitlar

Paxta chigitini turli xil fraksiyalarga ajralish jarayonini chigit saralash qurilmasining yangi konstruksiyasida paxtaning bir nechta seleksion navida o'tkazildi. O'tkazilgan tajriba natijalari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.


**Paxtaning turli xil navlaridan olingan chigitlarni saralash jarayonidan olingan natijalar**

**3-jadval**

№	Paxtaning seleksion navlari	Puch va mayda chigitlar miqdori, %	Linterlashga molik bo'lmagan chigitlar, %	Linterlanadigan chigitlar, %	Yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlar, %
1	Andijon-36	15	26	52,2	6,8
2	Andijon-35	15	21	56,9	7,1
3	Buxoro-102	13	23	56,7	7,3
4	Namangan-77	14	24	56	6
5	S-6525	18	29	51,7	4,7

Paxtaning Andijon-35, Andijon-36, Buxoro-102, Namangan-77, S-6525 seleksion navlaridan olingan chigitlardan 13 kg dan namunalar olinib, saralash qurilmasining 3 xil o'lchamga ega bo'lgan teshiklaridan iborat bo'lgan uchastkalarida saralash jarayonida to'rt xil fraksiyadagi chigitlarga saralandi.

Saralangan chigitlarni miqdorini foizlarda quyidagi diagrammalarda tasvirlaymiz (13-rasm).



**13-rasm. Saralash qurilmasining yangi konstruksiyasida chigitlarning fraksion tarkibini diagrammalarda tasvirlanishi**

Chigit saralash qurilmasining sanoat namunasida chigitlarni saralash jarayonida yuqoridagi diagrammalardan ko'rinadiki, paxtaning seleksion naviga qarab:

- puch va mayda chigitlar miqdori 13-18 % oralig'ida;
- linterlashga molik bo'lmagan chigitlar miqdori 21-29 % gacha;
- linterlanadigan chigitlar 51,7-56,9 % gacha;
- yigiruvga yaroqli tolasi bor chigitlar 4,7-7,3 % oralig'ida bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Saralangan chigitlarning tarkibiy qismlarini tahlil qilish qilishimiz jarayonida paxtaning har qaysi seleksion navlarida ham linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni chiqish jarayoni kuzatildi. Yangi chigit saralash qurilmasini qo'llash natijasida tozalash jinlash jarayonidan chiqayotgan chigitlar oqimidan 24,6 % miqdori linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratib olishga erishiladi. Buning natijasida ishlab chiqirilayotgan 8904 tonna chigitning 24,6 % miqdori ya'ni, 2190 tonna chigitlarni linterlash jarayoniga bermasdan to'g'ridan-to'g'ri chigit omboriga yuborish imkoniyatiga erishiladi. Bunda 2190 tonna chigitlarni linterlash jarayonida 2,5 % gacha shikastlanishini oldi olinib, o'z sinfini bir sinfga ko'tarishini ko'rishimiz mumkin. Paxta chigitining (1 tonnasi) narxilari bo'yicha 2-nav 1 sinfnig narxi 1145930 so'm va 2-nav yaxshi sinfnig narxi 978220 so'm ekanligini oldik.

$$2190 \cdot 1145930 - 2190 \cdot 978220 = 2509586700 - 2142301800 = 367\,284\,900 \text{ so'm}$$

Qurilma o'rnatilishi evaziga paxta chigitining sinfnig o'zgarishi 367 284 900 so'm iqtisodiy samara keltiradi.

Jami kapital xarajatlar:

$$91300 + 13695 + 4565 = 109560,0 \text{ ming so'm}$$

Yillik iqtisodiy samaradorlik:

$$367284900 - 109560000 = 257724900 \text{ so'm}$$

Yangi chigit saralash qurilmasini joriy etish natijasida 257724900 so'm yillik iqtisodiy samara olinadi.

## XULOSA

1. Adabiyotlar tahlili paxta tozalash korxonalarida jindan chiqqan chigitlar tarkibida linterlashga molik bo'lmagan chigitlarni ajratib olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yetarli emasligini ko'rsatdi.

2. Tolador chigitlarni vintli konveyer yordamida to'rtli yuza orqali samarali ajratib olishni ta'minlovchi geometrik ko'rsatkichlarini tanlash chigitlar oqimining aylanuvchi to'rtli baraban bo'ylab harakatlanayotgan chigitlarning harakat traektoriyasiga oid tuzulgan differensial tenglamalar yordamida aniqlandi.

3. Vintli shnek ta'sirida tolador chigitlarning tezliklari yo'nalishlari ham chigitlar oqimidan ajratishda muhim vazifalarni bajarishi aniqlandi.

4. Saralagichga qo'yilgan talablar va nazariy tadqiqotlar natijalariga ko'ra jin mashinalaridan chiqqan chigitlarni samarali tozalovchi va yuqori aniqlikda saralashni ta'minlovchi qurilma konstruksiyasi ishlab chiqildi.

5. Qurilmaning saralash yuzasini o'zgartirib tajribalar o'tkazib ko'rildi va yuqori samara berib ishlaydigan o'lchmalari aniqlandi.

6. Jinlash jarayonidan chiqqan chigitlar oqimidan olingan namunalar fraksiyalarga ajratilib o'rganilganda: puch va mayda chigitlar 18,3 %, linterlashga molik bo'lmagan chigitlar 24,6 % ni tashkil qildi.

7. Saralash jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida yakka chigitning geometrik o'lchamlari uzunligi, eni, balandligi aniqlanib, shu asosda to'rtli yuza teshiklarining o'lchamlari aniqlandi.

8. Yangi qurilmani ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida korxonada bir mavsum mobaynida 257724900 so'm yillik iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/04.10.2023.Т.174.01 ПРИ НАМАНГАНСКОМ  
ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**АХМЕДОВ МАКСАД ИБРАГИМОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ  
СЕМЯСОРТИРОВОЧНОГО УСТРОЙСТВА С ЦЕЛЬЮ ПОВЫШЕНИЯ  
ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ**

05.06.02 – Технология текстильных материалов и  
первичная обработка сырья

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2024.1.PhD/T4470.

Диссертация выполнена в Наманганском институте текстильной промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Наманганском инженерно-технологическом институте ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) и на информационном образовательном портале "ZiyoNet" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) размещены.

**Научный руководитель:**

**Мурадов Рустам Мурадович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Жуманиязов Кадам Жуманиязович**  
доктор технических наук, профессор

**Умаров Акмал Акпаралиевич**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Ферганский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «29» июня 2024 в 14<sup>00</sup> часов на заседании при научном совете PhD.03/04.10.2023.T.174.01 при Наманганском институте текстильной промышленности. (Адрес: 160605, г. Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04. e-mail: info@ntsi.uz, 1-здание Наманганского института текстильной промышленности, 1-этаж, зал совещаний).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Наманганского института текстильной промышленности (зарегистрирован под номером 17 ). (Адрес: 160605, г. Наманган, ул. Южная кольцевая, дом 17, тел. (998)55-251-43-04., (998)55-255-43-04.)

Автореферат диссертации разослан «15» июня 2024 года.  
(Протокол рассылки №14 от «02» май 2024 года).



**К.М.Холиков**  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор технических наук, профессор

**Х.Т.Бобожанов**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
доктор технических наук, доцент

**Ж.К.Юлдашев**  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней, доктор технических  
наук, доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

Во всем мире основным сырьем для производства текстильной продукции является хлопковое волокно, и особое значение придается внедрению инновационных, энергосберегающих технологических машин в процесс переработки хлопкового волокна с сохранением его натуральных показателей качества. Сегодня в связи с ростом спроса на хлопковое волокно необходимо постоянно улучшать качество хлопка и требуется повышение эффективности его производства. По данным «Международного консультативного комитета по хлопку (ICAC)»<sup>13</sup>, мировое производство хлопкового волокна составляет 23,07 млн тонн, а его потребление за последние годы составляет 24,55 млн тонн. В связи с этим особое внимание уделяется повышению конкурентоспособности хлопкового волокна на мировом рынке, модернизации новых технологий и устройств, позволяющих производить современную, технологически надежную и качественную продукцию.

В мире проводятся научные исследования по разработке инновационных, энергоресурсосберегающих технологических машин, обеспечивающих непрерывную и эффективную работу техники и технологий переработки хлопка-сырца, а также по обоснованию их оптимальных параметров. В этом направлении, среди прочего, приоритетными считаются исследования по сохранению исходных качественных показателей волокон и семян, качества сырья, снижению энергопотребления технологических процессов, разработке компактных, простых, маломатериалоемких и энергозатратных конструкций оборудования. При этом основными задачами развития этой отрасли являются создание современных, автоматизированных технологий, способных контролировать качество продукции, а также повышение качества и снижение себестоимости продукции за счет ускорения внедрения в производство созданных передовых технологий и техники.

